



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HARBIY XAVFSIZLIK VA MUDOFAA
UNIVERSITETI

III QISM

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO'PLAMI

COLLECTION OF THE INTERNATIONAL
SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE MATERIALS


СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

AMIR TEMURNING JAHON HARBIY
SAN'ATI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

AMIR TEMUR'S CONTRIBUTION TO THE
DEVELOPMENT OF WORLD MILITARY ARTS

ВКЛАД АМИРА ТЕМУРА В РАЗВИТИЕ
МИРОВОГО ВОЕННОГО ИСКУССТВА

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HARBIY XAVFSIZLIK VA MUDOFAA UNIVERSITETI**



**AMIR TEMURNING JAHON HARBIY
SAN'ATI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI**

Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to'plami

III-QISM

2026-yil 8-aprel

Toshkent 2026

UO‘K 355.48(063)

KBK 68.3

A 48

Amir Temurning jahon harbiy san’ati rivojiga qo’shgan hissasi: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to’plami, 2026- yil 8- aprel / [dotsent, h.f.d. (DSc), polkovnik A.R.Qodirovning umumiy tahriri ostida] – Toshkent: O‘R Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, 2026. – 295 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to’g’risida”gi PQ-46-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining 2026-yil 11-fevraldagi “Mudofaa vazirligi qo’shinlarida buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to’g’risida”gi 129-sonli buyrug’ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 2026-yil 8-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida “Amir Temurning jahon harbiy san’ati rivojiga qo’shgan hissasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o’tkazildi.

Mazkur to’plamdan mamlakatda tarixiy xotirani tiklash va milliy davlatchilik an’analari ilmiy asosda rivojlantirish, buyuk tarixiy sarkardaning boy harbiy merosi va ilg’or hayotiy tajribalarini muntazam o’rganib borish, xalqaro miqyosda ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, milliy harbiy san’at namunalarini birlamchi manbalar asosida qiyosiy tahlil qilish, harbiy fan va ta’lim tarixini to’ldirish, Sohibqiron Amir Temur qoldirgan boy harbiy merosini, jang san’ati, qahramonliklari va saboqlarini chuqur o’rganish, ular qo’llagan strategiya va taktika nazariyalarini tizimli tahlil qilish, zamonaviy harbiy amaliyotga tatbiq etish, uning strategik va taktik tafakkurini sivilizatsion-sulolaviy yondashuv prizmasi asosida o’rganish, mohir sarkardaning ulkan merosi, strategik tafakkurining jahon harbiy san’atini rivojlantirishga qo’shgan hissasi haqida maqolalar va tezislarni o’rin olgan.

To’plamga taqdim etilgan barcha ma’lumotlarning aniqliligi hamda, nashr etilgan materiallar uchun “Intellectual mulk to’g’risida”gi qonun hujjatlariga rioya etilishiga mualliflar mas’uldirlar.

UO‘K 355.48(063)

KBK 68.3

Tahrir hay’ati:

Dadaboyev H.A., filologiya fanlari doktori (DSc), professor;

Otaboyev A.K., siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Raxmatullayeva A.R., tarix fanlari nomzodi, dotsent;

Arushanova M.S., san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD);

Tuxliyev Sh.Y., texnika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), KIX;

Raxmatbayev R.J., harbiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD), KIX;

Davletkildiyev M.I., kichik ilmiy xodim;

Abubakirov I.I., kichik ilmiy xodim;

Omonov A.A., kichik ilmiy xodim;

Murodillayeva M.U., kichik ilmiy xodim.

© O‘zbekiston Respublikasi

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, 2026

MINISTRY OF DEFENCE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**MILITARY SECURITY AND DEFENCE UNIVERSITY
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**



**CONTRIBUTION OF AMIR TEMUR TO THE
DEVELOPMENT OF THE WORLD MILITARY ART**

*Collection of the materials of the International
Scientific-Theoretical Conference*

PART III

April 8, 2026

Tashkent 2026

UDC 355.48(063)

LBC 68.3

A 48

Amir Temur's Contribution to the Development of World Military Art: A Collection of International Scientific Conference Materials, April 8, 2026 / [Under the general editorship of Associate Professor, Doctor of Historical Sciences (DSc), Colonel A.R. Qodirov] – Tashkent: University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan, 2026. – 295 p.

In order to ensure the implementation of the tasks set forth in the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-46, dated February 5, 2026, "On the Wide Celebration of the 690th Anniversary of the Great Statesman and Commander Amir Temur," and the Order of the Minister of Defense of the Republic of Uzbekistan No. 129, dated February 11, 2026, "On the Wide Celebration of the 690th Anniversary of the Birth of the Great Statesman, Commander, and Patron of Science, Culture, and Art Amir Temur in the Troops of the Ministry of Defense," an international scientific-practical conference titled "Amir Temur's Contribution to the Development of World Military Art" was held on April 8, 2026, at the University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan.

This collection includes articles and theses focused on restoring historical memory and scientifically developing national statehood traditions. It explores the rich military heritage and advanced life experiences of the great commander, fosters international scientific cooperation, and provides a comparative analysis of national military art based on primary sources. The materials delve into the military science, combat skills, strategies, and tactics employed by Amir Temur, analyzing them through a civilizational-dynastic prism and assessing their application in modern military practices.

The authors are solely responsible for the accuracy of the information provided in the collection and for compliance with "Intellectual Property" legislation regarding the published materials.

UDC 355.48(063)

LBC 68.3

Editorial Board:

Dadaboyev N.A., Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor;

Otaboyev A.K., Doctor of Philosophy (PhD) in Political Sciences, Associate Professor;

Raxmatullayeva A.R., Candidate of Historical Sciences, Associate Professor;

Arushanova M.S., Doctor of Philosophy (PhD) in Art Criticism;

Tuxliyev Sh.Y., Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Researcher;

Raxmatbayev R.J., Doctor of Philosophy (PhD) in Military Sciences, Senior Researcher;

Davletkildyev M.I., Junior Researcher;

Abubakirov I.I., Junior Researcher;


Omonov A.A., Junior Researcher;

Murodillayeva M.U., Junior Researcher.

© Military security and defence university
of the Republic of Uzbekistan, 2026

МИНИСТЕРСТВО ОБОРОНЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**УНИВЕРСИТЕТ ВОЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
И ОБОРОНЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**



**ВКЛАД АМИРА ТЕМУРА В РАЗВИТИЕ
МИРОВОГО ВОЕННОГО ИСКУССТВА**

*Сборник материалов Международной
научно-теоретической конференции*

ЧАСТЬ III

8 апреля 2026 года

Ташкент 2026

УДК 355.48(063)

ББК 68.3

А 48

Вклад Амира Темура в развитие мирового военного искусства: сборник материалов международной научной конференции, 8 апреля 2026 г. / [под общей редакцией доцента, д.и.н. (DSc), полковника А. Р. Кадилова] – Ташкент: Университет военной безопасности и обороны РУз, 2026. – 295 с.

Во исполнение задач, определенных Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-46 от 5 февраля 2026 года «О широком праздновании 690-летия со дня рождения великого государственного деятеля и полководца Амира Темура» и Приказом министра обороны Республики Узбекистан № 129 от 11 февраля 2026 года «О широком праздновании 690-летия со дня рождения великого государственного деятеля и полководца, покровителя науки, культуры и искусства Амира Темура в войсках Министерства обороны», 8 апреля 2026 года в Университете военной безопасности и обороны Республики Узбекистан состоялась международная научно-практическая конференция на тему: «Вклад Амира Темура в развитие мирового военного искусства».

В данный сборник включены статьи и тезисы, посвященные восстановлению исторической памяти и научному развитию традиций национальной государственности, изучению богатого военного наследия и передового жизненного опыта великого полководца, развитию международного научного сотрудничества, сравнительному анализу образцов национального военного искусства на основе первоисточников. В материалах глубоко исследуются военное наследие, искусство боя, героизм и уроки Сахибкирана, проводится системный анализ теории стратегии и тактики для их применения в современной военной практике, а также изучается стратегическое мышление полководца через призму цивилизационно-династического подхода.

Авторы несут персональную ответственность за точность представленной в сборнике информации и соблюдение законодательства об «Интеллектуальной собственности» в отношении опубликованных материалов.

УДК 355.48(063)

ББК 68.3

Редакционная коллегия:

Дадабоев Н. А., доктор филологических наук (DSc), профессор;
 Отабоев А. К., доктор философии по политическим наукам (PhD), доцент;
 Рахматуллаева А. Р., кандидат исторических наук, доцент;
 Арушанова М. С., доктор философии по искусствоведению (PhD);
 Тухлиев Ш. Я., доктор философии по техническим наукам (PhD), СМС;
 Рахматбаев Р. Ж., доктор философии по военным наукам (PhD), СМС;
 Давлеткильдеев М. И., младший научный сотрудник;
 Абубакиров И. И., младший научный сотрудник;
 Омонов А. А., младший научный сотрудник;
 Муродиллаева М. У., младший научный сотрудник.

© Университет военной безопасности и обороны
 Республики Узбекистан, 2026

MUNDARIJA

Shoidov O.A. , Amir Temur yurishlarida qo'llangan harbiy taktika va hiylalar.....	11
Madumarov R.R. , Amir Temur va ilm – ma'rifat.....	15
Салихова С.Д. , Амир Темур и современная система махаллинского управления: историко-правовой анализ преемственности	17
To'ranazarov U.R. , Buyuk sarkarda Amir Temur qo'shinlarini tayyorlash tizimini bo'lajak ofitserlarni kasbiy kompetentligi oshirishdagi o'rni	22
Mansurov K.Yu. , Amir Temurning davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlari va maxfiy ishlarni olib borish	25
Erkayev B.Y. , Amir Temur yurishlarining harbiy strategiyasi	28
Toshmamatov A.U. , Amir Temur jangchilarini salbiy axborot-psixologik hujumlardan himoya qilishda nazariy va amaliy tadbirlar ahamiyati	33
Shoyimov I.Q., Kazakov I.M. , Amir Temur o'gitlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi roli.....	36
Otalikov E.M. , Amir Temur qo'shinlarida jangchilarning axloqiy-ruhiy barqarorligini qo'llab quvvatlashning ahamiyati	41
Ismailov D.T., Shoyimov I.Q. , Amir Temur qo'shinlarini milliy va jangovar ruhni saqlagan holda jang olib borish strategiyasi.....	44
Oydinov O.O. , Amir Temurning harbiy harakatlarida axloqiy-ruhiy barqarorlikning o'rni	47
Kucharov I.R. , Sohibqiron Amir Temur qo'shini tomonidan qal'a va shaharlarni qamal va ishg'ol etishdagi taktikasi.....	51
Ergashev J.Sh. , Amir Temur davriga oid madaniy boyliklar jahon harbiy san'ati tarixini o'rganishning muhim manbai sifatida.....	54
Nurullayev A.A. , Amir Temur ilmiy va ma'naviy merosi orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati	58
Qodirov F.M. , Amir Temur qo'shinlarini kiyim-kechak ta'minoti.....	62
Sobirov B.T. , Amir Temurning kichik osiyoga harbiy yurishlari va ularning strategik ahamiyati.....	65
Azamatova Sh.T. , Amir Temur va Temuriylar davrida ayollarning bunyodkorlik faoliyati.....	68
Шокиров Т.С. , Геостратегические императивы Амира Темура на примере взаимоотношений с Египтом	71
Bakhtiyorova Sh.Q. , Amir Temur's Contribution to the Expansion of Language Studies and the Advancement of Science.....	75
Fayziyev U.A. , Amir Temur harbiy yurishlarida askariy ruhiyatni yuksaltirish omillari va ularning zamonaviy ahamiyati	78
Raxmonov I.Y. , Amir Temur merosini kursantlar kasbiy tayyorgarligi va tarbiyasida tutgan o'rni	80
Hasanov U.Sh. , Sohibqiron Amir Temur armiyasida marshda safar qo'riqlovini imkoniyatlarini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	83

Hasanov Z.S. , Buyuk sarkarda Amir Temur qo'shinlarida jang san'ati...	85
Ismoilov I.A. , Amir Temur davrida chegarani qo'riqlash va himoya qilish tizimining o'ziga xosligi	90
Shukurov A.S. , Amir Temur armiyasining harbiy kiyim va qurol-aslahalari.....	93
Shohakimov A.R. , Amir Temur harbiy merosida jangovar ruhni yuksaltirishning konseptual modeli.....	97
Shermatov F.T. , Amir Temur va Temuriylar davrida davlat boshqaruvi islohotlari hamda harbiy san'atning ma'naviy-axloqiy asoslari	100
Хужаев Б.Т. , Амир Темур как великий полководец: военная система, разведка и историческая оценка.....	104
Bekpulatov X.B. , Amir Temurning harbiy yurishlar oldidan dushman kuchlarini o'rganish san'ati.....	107
Turkmanov Y.K. , Amir Temur o'z lashkarlarining jangovar ruhini oshirishda amalga oshirgan tizimli tadbirlar	111
Сабилов Г.Г. , Всесторонний анализ военной компании великого полководца Амира Темура в ходе похода в Индию	114
Kasimov N.K. , Amir Temur harbiy-razvedka doktrinasi: strategik tahlil va operatsion usullar (Oltin O'rda va Hindiston yurishlari misolida)	117
Xaydarov B.M I.X. , Amir Temur muxobara oldidan hududni baholash strategiyasi.....	119
Djurayeva S.N. , Amir Temur davrida qo'shin tuzilishi va jang taktikalari	123
Xalilov R.M. , Amir Temur sarkardalari.....	126
Azimov M.A. , Amir Temur qo'shinlarining butlash masalalari	129
Pardayeva L.N. , Amir Temur davlat boshqaruvida adolatli qonun ustuvorligi, mavjud mansab va lavozimlar vakolati.....	133
Suyarov Z.X., Ziyadullayev A.Sh. , Sohibqiron Amir Temur qo'shinlari tarkibida vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning ahamiyati.....	135
Daminov B.Q., Norqobilov Sh.X. , Sohibqiron Amir Temur haqidagi ilmiy manbalar va ularning o'rganilishi	140
Djavliyev F.Q. , Amir Temur qo'shinlarni harbiy yurishlarida harbiy hiyla va ularning o'ziga xos xususiyatlari	143
Jurayev F.X. , Amir «Temur tuzuk»lari: Amir Temurning asosiy harbiy yurishlarida harbiy san'atning rivojlanishi.....	148
Jo'rayeva B.A. , Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi: siyosiy qudrat va ma'rifat uyg'unligi.....	153
Akbarxodjayev K.A. , Amir Temur harbiy sarkardalik faoliyati va harbiy xalqaro miqyosida e'tirof etilishi.....	157
Boltayev F.A. , Amir Temur – adolatli hukmdor va yuksak ma'naviyat egasi	161
Nazarmatov A.S. , Buyuk sarkarda Amir Temur yurishlarda qo'llagan taktika va harbiy xiylalar	163

Kayumov Sh. Sh. , Amir Temurning harbiy san'atini zamonga moslashuvchanligining strategik prinsiplari.....	167
Madraximov V.B. , Amir Temur ma'naviy merosining yoshlar dunyoqarashi shakllantirishdagi o'rni.....	170
Toshtemirov I.S. , Sohibqiron Amir Temur saltanatida huquqiy masalalar	173
Karimov R.M., Akaboyev J.S. , Amir Temur davlatining ichki va tashqi siyosati.....	177
Ibragimov J.U. , Amir Temur armiyasi qudratini oshirishda harbiy mashqlarning o'rni va ahamiyati.....	180
Xasanov M.M. , Amir Temur qo'shinlarida jangovar harakatlar olib borishda niqoblash tadbirlarining o'ziga xosligi	182
Mamajonov I.O. , Temuriylar davrida harbiy-vatanparvarlik g'oyalarining evolyutsiyasi: tarixiy va institutsional tahlil	184
Nomuratova M.K. , Amir Temurning davlatchilik va harbiy boshqaruv tizimidagi konseptual g'oyalari.....	186
Qahharova S.A. , Amir Temurning harbiy taktikasida nutqning lingvopragmatik hamda psixolingvistik o'rni	190
Usanov F.I. , Amir Temur shaxsiyatining Markaziy Osiyo va jahon tarixidagi o'rni (XIV asr oxiri - XV asr boshlarida).....	193
Najimov M.M. , «Temur tuzuk»larida harbiy san'atga oid ma'lumotlar tahlili.....	196
Yuldoshov G'. , Amir Temur harbiy yurishlarida qo'shinlarning qurol-yarog' ta'minoti va uning strategik ahamiyati	200
Гудзева С.С. , Модель лидерства, дисциплины и коллективной ответственности в государственном управлении Амир Темура	205
Шайманов А.Т. , Военно-инженерное искусство в эпоху Амира Темура.....	210
Norgitov F.T., Shomurotov Z.Z. , Amir Temurning harbiy san'ati va jang olib borish usullari.....	213
Yuldashev S.R. , Amir Temurning jangovar harakatlarda qaror qabul qilish san'ati: tizimli yondashuv va algoritmlar.....	217
Sotkulova D.O. , Diplomacy and Statecraft in the Era of Amir Temur: Language, Power, and Prestige.....	221
Nasirdinova D.M. , Political and Social Role of Women in the Timurid Empire.....	224
Bakirova A.I. , Free Thought During The Reign of Amir Timur.....	227
Mirpayazova S.Z. , Knowledge and Power: Educational Institutions and Intellectual Culture in the Timurid Era.....	231
Turayeva N.N. , The Strategic Role of Education in the Timurid Empire: Fostering the Renaissance of Central Asia	234
Nematova N.M. , Amir Temur harbiy san'ati asosida liderlik va vatanparvarlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	237

Eryigitova L.A. , Amir Temur harbiy san'atining jamiyat boshqaruvi va ijtimoiy tizimga ta'siri	240
Boboyev A.A. , Amir Temur merosining harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy barqarorligini oshirishdagi ahamiyati.....	244
Madraximov A.M. , Amir Temur davrida ijtimoiy adolat va aholi farovonligi masalalari.....	248
Rasulov M.M. , Amir Temur siymosi jahon kompozitorlari ijodida	250
Sodiqova Sh.M. , Amir Temur shaxsining sotsiologik tahlili: ijtimoiy liderlik va davlat boshqaruvi modeli	253
Isaqov G'.Ya. , Amir Temur saltanatida harbiy intizom va huquq-tartibot: mukammal boshqaruv modeli.....	257
Kattaxujayev S.K. , Amir Temur merosining yoshlarni kelajak kasblariga yo'naltirishdagi ahamiyati.....	260
Shokirboyev A.A. , Amir Temur qo'shinining jangovar ruhiy holati.....	263
Mardonov A.M. , Amir Temur's contribution to education: a historical and pedagogical analysis.....	266
Xolikov R.A. , Amir Temurning harbiy strategiyasi va strategik taktikasi: o'rta asrlar harbiy san'atining fenomeni.....	269
Yuldashev F.B. , Amir Temurning turli saltanatlar va podshohliklar borasidagi ba'zi fikrlari.....	275
Nomozov N.G'. , Amir Temurning turli saltanatlar va podshohliklar borasidagi ba'zi fikrlari.....	280
Bebitov O.B. , Buyuk Sarkarda Amir Temur – jismoniy komillik va jangovar mahorat yo'lida.....	285
Xo'jamov V.A. , Amir Temur saltanati davrida mudofaa strategiyasi va harbiy mahorat.....	287
Razov N.M. , Amir Temur harbiy san'atining konseptual asoslari va strategik fenomeni.....	292

**AMIR TEMURNING HARBIY TAKTIKASIDA NUTQNING
LINGVOPRAGMATIK HAMDA PSIXOLINGVISTIK O'RNI
THE LINGUOPRAGMATIC AND PSYCHOLINGUISTIC ROLE OF
SPEECH IN AMIR TEMUR'S MILITARY TACTICS
ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ
РОЛЬ РЕЧИ В ВОЕННОЙ ТАКТИКЕ АМИРА ТЕМУРА**



Qahharova Sabohat Abdug'afurovna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti
Каххарова Сабохат Абдугафуровна,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Ташкентского государственного университета узбекского языка и
литературы имени Алишера Навои
Kakhkharova Sabokhat Abdugafurovna,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named
after Alisher Navoi

Jahon harbiy san'ati va davlatchilik tarixida Amir Temur fenomeni nafaqat o'zining strategik mukammalligi, moddiy-texnik ta'minoti va intizomi bilan, balki boshqaruvning yuksak intellektual mexanizmlari bilan ham ajralib turadi. Tarixdan ma'lumki, bu ulkan harbiy tizimni harakatga keltiruvchi, turli elat va millatlardan iborat qo'shinni yagona g'oya atrofida birlashtiruvchi hamda raqibni ma'naviy jihatdan qurolsizlantiruvchi eng asosiy omillardan biri bu til va nutq qudrati bo'lgan.

Tilshunoslik fanida, xususan, uning pragmatika, kognitiv tilshunoslik va psixolingvistika kabi sohalarida til muloqot vositasi bo'lish bilan birga inson ongi va ruhiyatiga kengroq miqyosda ta'sir o'tkazuvchi, uning xatti-harakatini dasturlovchi va modellashtiruvchi faol mexanizm sifatida talqin etiladi. Harbiy faoliyatda nutq shunchaki axborot uzatuvchi vosita emas, balki bevosita harakatga undovchi illokutiv va perllokutiv kuchdir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan boy harbiy leksika va sintaktik imkoniyatlar aynan Amir Temur davrida o'zining eng yuqori pragmatik cho'qqisiga ko'tarildi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Sohibqironning harbiy strategiyasi va taktikasida nutqning bevosita o'rnini lingvistik tahlilga tortish, so'zning dushman psixologiyasiga salbiy, o'z qo'shini ruhiyatiga esa ijobiy ta'sir ko'rsatish qonuniyatlarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan asoslashdir.

Amir Temur o'zining davlat va qo'shin boshqarish strategiyasini «Temur tuzuklari» asarida shunday o'lchaydi: *“Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat bilan, bir ulushini esa qilich bilan amalga oshirdim”*.

Sohibqironning ushbu e'tirofi sof psixolingvistik va strategik ahamiyatga ega. Matndagi *“kengash”*, *“tadbir”* va *“mashvarat”* so'zlari aslida intellektual muloqotni, axborot almashinuvini, dushmanni o'rganish va unga nisbatan nutqiy-kognitiv strategiya ishlab chiqishni anglatadi. Yengilmas Temur qo'shini muvaffaqiyatining 90 foizi bevosita so'z qudratiga, ya'ni adolatli farmonlar, mukammal axborot tahlili va dushmanni ruhan taslim qiluvchi diplomatik-psixologik amaliyotlarga tayangan. Qolgan 10 foizi esa shu so'z va aql orqali yo'naltirilgan jismoniy harakat bo'lgan. Bu o'rinda so'zning harbiy amaliyotdagi vazifasi bevosita qurol maqomiga ko'tarilganini ko'ramiz.

Harbiy maydonda insonning eng kuchli biologik instinkti bo'lmish jon saqlash refleksini yengish uchun quruq buyruqning o'zi yetarli emas. Bu o'rinda Sohibqiron o'z nutqida jangovar ruhni alangalantiruvchi *“or-nomus”* va *“yigitlik sha'ni”* konseptlaridan ustalik bilan foydalangan.

Bu haqda «Temur tuzuklari»da shunday deyiladi: “*Sipohiylarning or-nomuslisi va shijoatlisini tanlab oldim... Chunki or-nomusli kishi o'limdan sharafni ustun qo'yadi*”.

Amir Temurning askarlarga qaratilgan xitoblarida qo'llanilgan vatan sha'ni, or-nomus, yigitlik g'ururi, shon-sharaf kabi leksik birliklar oddiy jangchilardagi o'lim tahlikasini yengishda ta'sirchan psixolingvistik omil bo'lib xizmat qilgan. Psixolingvistika qonuniyatlariga ko'ra, qo'mondon nutqida bunday yuksak ijtimoiy-axloqiy konseptlarning faollashuvi jangchilar ongidagi qo'rquv instinktni neytrallashtirishadi hamda uning o'rnida matonat va irodani shakllantiradi. Askar o'limni fojia emas, balki shon-sharaf va burchga sadoqat darajasida qabul qiladi. Amir Temurning so'z qo'llash mahorati shunda ediki, u quruq jazo bilan emas, balki askarning ruhiyatiga “or-nomus” tushunchasini faollashtirish orqali uning jasoratini ta'minlay olgan.

Aytish joizki, Amir Temur qo'llagan harbiy yozishmalar uslubi dushmanning intellektual va emotsional holatini boshqarishga qaratilgan edi. U Boyazidning kibrini sindirish uchun oddiygina “*turkman elatidan chiqqan kemasozning avlodisan*” degan jumlaning ishlatilishi. Bu yerdagi leksik tanlov dushmanning asabiylik, kognitiv dissonans va qaror qabul qilishda mantiqni emas, ehtirosni ustun qo'yishga majbur etgan. Dushmanning jismoniy jangdan avval ruhiy va intellektual maydonda yengish harbiy notiqlikning eng yuqori cho'qqisidir.

Harbiy mojarolarning boshlanishidan oldingi eng muhim bosqich axborot-psixologik kurash sanaladi. Amir Temur o'z strategiyasida iloji boricha qon to'kmasdan, raqibni ruhiy jihatdan taslim qilishga uringan. Buning uchun u har qanday holatda ham nutqning lingvopragmatik ta'siridan, ya'ni so'z orqali dushman ongida qo'rquv va tushkunlik, ya'ni kognitiv dissonans yaratish usulidan foydalangan. Tarixiy hujjatlar, jumladan, To'xtamishxon, Yildirim Boyazid yoxud Misr sultonlariga yozilgan maktublar nutqiy strategiyaning noyob namunasidir. Amir Temurning Boyazidga yozgan birinchi maktubida shunday satrlar mavjud:

“Ey Rum eli diyorining podshohi, Yildirim Boyazid! Avvalo, shuni uqib olki, biz o'z kuch-qudratimiz va iqtidorimiz ila insoniyatning katta bir qismini o'zimizga tobe qilgan hukmdorlarmiz. Bunday misli ko'rilmagan ishni o'z jiddu jahdimiz bilan qildik, sen kabi hokimiyatni ota-bobolarimizdan meros qilib olmadik... Bizga bo'ysunmaganlarning oqibati nima bo'lganini eshitgan bo'lsang kerak, sening ham boshingga shu musibat tushishidan ehtiyot bo'l!”¹

Mazkur yozishmalar tarixchi Faridunbekning “**Munshaot us-salotin**” (Sultonlar yozishmalari) to'plamida, shuningdek, Ibn Arabshohning “**Ajoyib ul-maqdur**” asarida keltirilgan. O'zbek tarixchilaridan B.Ahmedov va L.Kalimullina kabi olimlar ham bu maktublarning strategik ahamiyatini tadqiq etishgan.

Maktub “*Ey Rum eli diyorining podshohi...*” deb boshlanadi. Boyazid o'zini butun islom olamining, Yevropa va Osiyoning buyuk sultoni deb hisoblagan bir paytda Temur unga shunchaki kichik bir hududning, ya'ni Rum elining hokimi sifatida murojaat qiladi. Bu yerdagi leksik cheklov Boyazidning o'ziga bo'lgan yuksak ishonchi va global mavqeyini psixologik jihatdan yerga urishga qaratilgan.

Maktubdagi “*Bunday misli ko'rilmagan ishni o'z jiddu jahdimiz bilan qildik, sen kabi hokimiyatni ota-bobolarimizdan meros qilib olmadik*”,– degan gap dushmanning ruhiy himoyasini parchalovchi eng kuchli zarbadir. Bu oddiy axborot emas, balki Boyazidning eng zaif nuqtasiga, ya'ni uning g'ururiga qilingan hujumdur. Sohibqiron bu orqali: “*Sening hamma yutug'ing ota-bobongdan qolgan tayyor taxt tufaylidir, men esa o'z qudratim bilan dunyoni oldim. Sen jangchi emassan, shunchaki merosxo'rsan*”, degan yashirin ma'noga, implikaturaga asosiy e'tiborini qaratmoqda. Bu e'tirof raqib ongida kuchli kognitiv dissonans va asabiy zo'riqishni shakllantiradi.

Maktublar matnida qo'llanilgan har bir leksik birlik, har bir o'xshatish va metafora to'g'ridan to'g'ri raqibning ruhiy himoyasini parchalashga qaratilgan: “*Bizning lashkarimiz poyonsiz dengiz kabi, sening qo'shining esa uning oldida bir tomchi suvga o'xshaydi...*” O'z qo'shinini “poyonsiz dengiz”, Boyazidning qo'shinini “tomchi suv” deb atash orqali Amir Temur

¹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amir-temur-va-ildirim-boyazid-orasidagi-maktublashuv/>

dushman ongida kuch-qudrati haqida dahshatli tasavvurni uygʻotmoqda. Inson ongi doimo obyektlarni qiyoslab idrok etadi. Dushman oʻzini “tomchi suv” sifatida his qilgan ondayoq uning ongidagi gʻalaba qozonishga boʻlgan ishonch hissi oʻrniga magʻlubiyat hissi egallaydi. Pragmalingvistikada bu holat gapiruvchining maqomni yuksaltirish (face-enhancing) va tinglovchining yuzini qizarishga majbur qilish (face-threatening acts) nazariyalari bilan tushuntiriladi.

Boyazidga bitilgan maktubdagi jumlar, ulardagi leksik ishoralar nafaqat raqibni obroʻsizlantirish, balki hissiyotga berilib, oʻylamasdan harbiy xato qilishga majbur etish uchun atayin tanlangan diskursiv manipulyatsiyadir. Raqib bunday matnni oʻqiganda maʼlumotni emas, toʻgʻridan toʻgʻri ruhiy zarbani qabul qiladi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, Sohibqironning doimo dushman ustidan gʻalaba qozonishi asosan jismoniy kuch, qilich va qalqon tufayli emas, balki inson irodasi va tafakkurini boshqaruvchi lingvopragmatik hamda psixolingvistik xatti-harakat sabablidir. Bunda eski oʻzbek tilining boy leksik fondi, imperativ sintaksisning oʻtkirliigi, soʻz yasash imkoniyatlari davlat va harbiy iyerarxiyada eng ishonchli vosita boʻlib xizmat qilgan.

Nutqning harakatga aylanish jarayoni sanalgan illokutiv akt va uning oqibati perlokutiv effekt Temur davri harbiy diskursining oʻzagi boʻlgan. Tarixiy hujjatlarda keltirilishicha, Amir Temur yirik davlat arbobi boʻlish bilan birga inson psixologiyasini soʻz bilan bexato boshqara oluvchi buyuk notiq, oʻz davrining chinakam “amaliy psixolingvisti” ham sanalgan. U soʻzni qurol kabi charxlagan, kerakli oʻrinda dushmanni yanchuvchi gurzi, yana shunday vaziyatlarda oʻz askarlarini koʻkka koʻtaruvchi qanot sifatida ishlata bilgan.

Amir Temur harbiy strategiyasi va taktikasini filologik, xususan, lingvopragmatik va psixolingvistik aspektida oʻrganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Amir Temurning xalqaro xatlari va diplomatik yozishmalari dushman ongida kognitiv dissonans yaratishning oʻta nozik pragmatik mexanizmi boʻlib, jang boshlanmasidanoq raqib irodasini falajlashga xizmat qilgan.

Qoʻshin oldidagi xitoblarda ruhiyatni koʻtaruvchi birliklarning qoʻllanilishi askarlardagi oʻlim qoʻrquvini fidoyilik va jasorat tuygʻusiga aylantira olgan. Bu hodisa soʻzning inson neyrofiziologiyasiga toʻgʻridan toʻgʻri taʼsirining isbotidir.

Harbiy buyruqlarning qisqa, bir maʼnoli va keskinligi minglab askarlarning sinxron hamda refleksiv harakatlanishini taʼminlagan, taktik buyruqlarning zudlik bilan mushaklar motorikasiga aylanishiga zamin yaratgan.

Oʻzbek harbiy terminologiyasi va unvonlar tizimining aniq va iyerarxik tuzilishi qoʻshin ichida kuchli intizomni taʼminlash bilan birga mislsiz ijtimoiy-psixologik ham shakllantirgan.

Umuman olganda, Amir Temur fenomenini tarixiy voqelik sifatida qabul qilish bilan birga uni tilshunoslik muammolari kesimida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻzbek tilining tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan bu nutqiy sanʼat faqatgina tariximiz emas, balki bugungi harbiy nutq madaniyati, huquqshunoslik va boshqaruv psixologiyasi uchun ham mustahkam metodologik manba boʻlib xizmat qiladi.